

O'ZBEKISTONDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA TEMIR YO'L LOGISTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Yashnar Abdulla qizi

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi 2-kurs tinglovchisi

axmedovayashnar@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17060386>

O'zbekiston Respublikasi jadal iqtisodiy islohotlar yo'lidani bormoqda va bunda eksport salohiyatini oshirish milliy iqtisodiyotning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulotning o'sishi, valyuta tushumlarining ko'payishi va sanoatning rivojlanishi bevosita tashqi savdo faoliyatining samaradorligiga bog'liq. Eksport hajmining ko'payishi esa o'z navbatida logistika infratuzilmasining, ayniqsa, temir yo'l transporti tizimining yuqori darajada rivojlangan bo'lishini talab etadi. Temir yo'l logistikasining samarali tashkil etilishi tovarlarni tashish xarajatlarini kamaytirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, eksport geografiyasini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida geostrategik joylashuvi jihatidan juda qulay pozitsiyaga ega. Mamlakatimiz xalqaro tranzit yo'llari chorrahasida joylashgan bo'lib, u Osiyoni Yevropa, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq bilan bog'lovchi muhim ko'priki hisoblanadi. Shunga qaramasdan, logistika tizimi, xususan temir yo'l infratuzilmasi hali to'liq potensialga ega emas. Mamlakatda mavjud temir yo'l tarmog'i eksportni rivojlantirish uchun asosiy vositalardan biri sanalsa-da, mavjud imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish darajasi past. Jumladan, transport tizimidagi uzilishlar, eskirgan infratuzilma, yo'llar sifati va vagonlar yetishmovchiligi eksport jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda bu borada muhim islohotlar amalga oshirildi. Temir yo'llar tizimi raqamlashtirilib, yo'lovchi va yuk tashish xizmatlarining sifati oshirildi. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tomonidan yuk tashish tariflari qayta ko'rib chiqildi, yangi temir yo'l yo'nalishlari ochildi. Jumladan, "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" xalqaro temir yo'l loyihasi, "Transafg'on koridori" kabi yirik tashabbuslar O'zbekiston eksport salohiyatini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, bu loyihalarning samaradorligi ularni to'liq ishga tushirish va logistika zanjirlarini raqamlashtirish darajasiga bevosita bog'liq.

Temir yo'l logistikasini takomillashtirishda birinchi navbatda, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish zarur. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat zonalarini bilan temir yo'l bog'lanishini yaxshilash, logistika markazlari va intermodal terminallarni tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ko'plab ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarni eksport qilish uchun uzoq masofani yuk mashinalarida bosib o'tishga majbur bo'lishmoqda, bu esa xarajatlarning ortishiga olib kelmoqda. Temir yo'l orqali to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishni tashkil etish esa logistikani soddalashtiradi va eksport narxini pasaytiradi.

Bundan tashqari, temir yo'l transporti orqali yuk tashish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish zarur. Yuk harakati, bojxona rasmiylashtiruvi, yuk ortish-tushirish, chegara nazorati kabi bosqichlarni yagona platforma orqali onlayn kuzatish imkoniyati eksport jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini ta'minlaydi. Bu esa xorijiy hamkorlar uchun O'zbekistonni ishonchli va barqaror savdo sherigi sifatida ko'rsatadi.

Shuningdek, temir yo'l transporti xizmatlarida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi infratuzilmalarni barpo etish, xorijiy investorlarni jalb

qilish ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Xususan, logistika terminali, konteyner stansiyalari, sovitchli vagonlar kabi ob'ektlarga investitsiya kiritish orqali xizmatlar sifati va ko'lamini kengaytirish mumkin. Bu esa eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar, ayniqsa tez buziladigan oziq-ovqat tovarlarini uzoq masofalarga xavfsiz yetkazib berishga sharoit yaratadi.

Temir yo'l transportida xalqaro standartlarni joriy etish, xususan, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining temir yo'l texnologiyalari, konteynerlash va ortish-tushirish usullari bilan uyg'unlashtirish ham zarur. Bu nafaqat texnik jihatdan, balki huquqiy va tarif siyosati jihatidan ham uyg'unlikni ta'minlaydi. Shu maqsadda, O'zbekiston tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirib, mavjud tranzit bitimlarini qayta ko'rib chiqishi va soddalashtirilgan bojxona tartiblarini joriy etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish yo'lida temir yo'l logistika tizimini takomillashtirish muhim strategik ustuvorliklardan biridir. Buning uchun temir yo'llar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yuk tashish tizimini raqamlashtirish, logistika markazlarini rivojlantirish, xususi sektor ishtirokini kuchaytirish va xalqaro integratsiya jarayonlarini jadallashtirish zarur. Ushbu omillarni kompleks yondashuv asosida hal etish O'zbekistonning global savdo maydonida o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, yuk tashish va eksportni boshqarish bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularning zamonaviy logistika texnologiyalari va xalqaro standartlar bo'yicha bilimlarini oshirish ham dolzarb masalalardan biridir. Transport menejmenti, multimodal tashuvlar, bojxona tartib-taomillari va logistika tizimi bo'yicha mutaxassislar sonini ko'paytirish orqali amaliy sohada samaradorlikni oshirish mumkin. Bu borada oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar markazlari va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, regional logistika infratuzilmasini muvofiqlashtirish, yaqin qo'shni davlatlar bilan tranzit tashuvlar, tariflar va bojxona tartiblari bo'yicha yagona yondashuvlarni ishlab chiqish ham eksportni rag'batlantirishning muhim yo'nalishlaridandir. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan logistika siyosatini muvofiqlashtirish mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlab, O'zbekistonning transport va tranzit imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Bu borada iqtisodiy diplomatiya va xalqaro moliyaviy institutlar bilan sheriklik aloqalari ham kuchaytirilishi kerak. Osiyo Taraqqiyot Banki, Jahon Banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tuzilmalar bilan infratuzilmani moliyalashtirish, texnik ko'mak olish va ilg'or tajribalarni joriy qilish orqali mamlakatning logistika salohiyati bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I.A. (2016). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 30-dekabrda "Transport infratuzilmasini rivojlantirish va logistika tizimini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-476-sonli qarori.
3. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ rasmiy veb-sayti: www.railway.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy axborotnomalari, 2020–2024 yillar.

5. Siddiqov, B.B. (2021). Transport iqtisodiyoti va logistika. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.
6. Mirzakarimov, A.M., & Qodirov, S.Q. (2020). Logistika tizimi va uni boshqarish. – Toshkent: Innovatsiya.
7. Asian Development Bank (ADB). (2021). Uzbekistan: Transport Sector Assessment, Strategy, and Road Map. – Manila: ADB Publishing.
8. World Bank. (2020). Connecting to Compete: Trade Logistics in the Global Economy. – Washington: World Bank Group.
9. UNESCAP (2022). Review of Railway Connectivity in Central Asia. – Bangkok: United Nations ESCAP.
10. OECD. (2021). Enhancing Infrastructure Financing and Connectivity in Central Asia. – Paris: OECD Publishing.